

SUHBAT JARAYONIDA BERILADIGAN NAMUNAVIY SAVOLLAR TO‘PLAMI

KOMPYUTER INJINIRINGI (Multimedia texnologiyalari) TA’LIM YO‘NALISHI

I. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

1. “UZ” domenidagi domen nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ulardan foydalanishdan ko‘zlangan maqsad nima?
2. Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yishdan ko‘zlangan maqsad nima?
3. Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari tog‘risidagi qarorda qanday vazifalar belgilangan?
4. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag‘batlantirish bo‘yicha qanday ishlar olib borilmoqda?
5. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga “E-qaror” elektron tizimini joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nima?
6. Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishdan ko‘zlangan maqsad nima?
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorida qanday vazifalar belgilangan?
8. O‘zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarini rasmiylashtirish va berish tizimini joriy etish nima uchun kerak?
9. Dasturiy ta‘minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reyestri deganda nimani tushunasiz?
10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish nima uchun kerak?
11. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish nima uchun kerak bo‘ldi?
12. Dasturiy ta‘minot vositalari eksporti va importi qilishdan ko‘zlangan maqsad nima?
13. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad nima?
14. “ICTWEEK Uzbekistan” Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad nima?
15. Mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish nima uchun kerak?
16. Elektron hukumat va davlat xizmatlari deganda nima tushuniladi?
17. Maxalliy va xalqaro IT sohasi bozori, tendentsiyalar, yangi ish o‘rinlarini paydo bo‘lishi shartlari.
18. IT outsorsing nima?
19. Raqamli biznes haqida tushuncha bering.
20. Virtual VPS/VDS serverlar nima va ularni nima maqsadda qo‘llash mumkin.

21. Ma'lumot markazlarida xavfsizlikni ta'minlash usullari haqida nimalarni bilasiz?
22. Xosting va domenlar tushunchasi haqida ma'lumot bering.
23. Ma'lumot markazlarida xavfsizlikni ta'minlash usullari haqida nimalarni bilasiz?
24. Sog'liqni saqlash axborot tizimlari xizmatlari va texnik xizmat ko'rsatishga nimalar kiradi.
25. Ta'limni raqamlashtirish deganda nima tushuniladi.
26. Virtuallashtirish. Virtual mashinalar vazifalari.
27. Cloud computing va uning xizmatlari.
28. Internet provayder xizmatlariga nimalar kiradi?
29. Simsiz tarmoq texnologiyalarini sanab bering?
30. ADSL, GPON texnologiyalarini tushuntirib bering.

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish):

1. Axborot texnologiyalari mutaxassislari qanday muammolarni yechadilar?
2. Axborot texnologiyalari mutaxassisini boshqa kasblardan afzalroq tomonlari bormi?
3. Kompyuter injiniring mutaxassisi mohiyati va ahamiyati nimada?
4. Kompyuter injiniring mutaxassisi qanday muammolarni hal qiladi?
5. Dasturiy injiniring mutaxassisi mohiyati va ahamiyati nimada?
6. Dasturiy injiniring mutaxassisi qanday muammolarni hal qiladi?
7. Axborot texnologiyalari bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish nima uchun muhim?
8. Dastur ishlab chiqarish va sotish nima uchun daromadli soha hisoblanadi?
9. Axborot texnologiyalari bo'yicha yaxshi mutaxassis bo'lish uchun qaysi fanlarni yaxshi o'zlashtirish kerak?
10. Dasturlar insonlar hayotini yengillashtiradi deb o'ylaysizmi?
11. Qanday dasturlardan nima maqsadda foydalanasiz?
12. Dasturchi mutaxassislarni tayyorlash uchun universitetda o'qishi shartmi?
13. Qanday qilib axborot texnologiyalaridan foydalanib internet orqali pul ishlash mumkin.
14. Axborot texnologiyalari bo'yicha yirik kompaniyalar haqida nima bilasiz?
15. Axborot texnologiyalari bo'yicha o'qituvchilik kasbini boshqa kasblardan nima ustunligi bor?

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

1. IT muhandislik kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi?
2. IT muhandisi qanday fazilatlariga ega bo'lishi lozim?
3. IT muhandis bo'lish uchun qaysi bilimlar zarur?

4. Shaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim?
5. Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi? Izoh bering.
6. Sizing xayotingizda internet muxim o'rin tutadimi?
7. Sizingcha kompyuter o'yinlariga qiziqish turli xil moliyaviy muammolarni tug'diradimi?
8. Shu kungacha AKT sohasida qanday yutuqlarga erishgansiz?
9. Sizga biror topshiriq berilsa boshqalar bilan maslahatlashasizmi, nima uchun?
10. Sizingcha inson nega muvaffaqiyatga erisha olmaydi?
11. 5 yildan keyin o'zingizni qanday qiyofada aks ettirasiz?
12. Birinchi moliyaviy daromadingiz? Oxirgisichi?
13. Inson nimani to'g'ri tanlash kerak deb o'ylaysiz?
14. Nima uchun bugun kunda til o'rganishga bo'lgan talab yuqori deb o'ylaysiz? Siz qaysi tilni o'rganayapsiz?
15. Sizingcha kelajakda biror nimani o'zgartira olaman deb o'ylaysizmi? Aynan nimani?

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

1. Internet texnologiya deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday belgili tillarni bilasiz?
3. Mijoz-server texnologiyasini qanday tushunasiz?
4. "Dizayn" so'zining ifodasi?
5. Multimedia dizayn deganda nima tushunasiz?
6. Zamonavaiy multimedia texnologiyalarining turlari?
7. Zamonavaiy multimedia texnologiyalarining tarkibi?
8. Dizayn va innovatsiya tushunchalari.
9. Dizayn tushunchasi va tarixi.
10. Dizayn ob'yekti. Innovatsiya tushunchasi va turlari.
11. Multimedia texnologiyasining qo'llanish soxalari.
12. Multimedia texnologiyasining pedagogikadagi o'rni.
13. Multimedaning apparat va dasturiy ta'minotiga talablar.
14. Kompyuter tarmog'i orqali matnlarni taqdim etish.
15. Matnlarni saqlashda qo'llaniladigan formatlar.
16. Grafika. Audio. Video fayllar bilan ishlash.
17. Grafik fayl formati deganda nimani tushunasiz?
18. Rastrli fayl formatining o'lchamini qanday qisqartirish mumkin?
19. Fotosuratlarni saqlash uchun qanday formatdan foydalaniladi?
20. Grafik ob'ektlarni yaratish texnologiyasi (2D, 3D grafika).
21. Kompyuter grafikasi asoslari.
22. Rastrli tasvirlarni hosil qilishning dasturiy vositalari.
23. Vektorli grafika dasturlari.
24. Multimedia loyihalarni yaratishda foydalaniladigan qurilmalar.
25. Multimedia loyihalarni yaratish bosqichlari.

26. Multimedia loyihalarni yaratish ssenariylari.
27. Fraktal grafika tushunchasi.
28. Rastrli grafikaning avfzalligi va kamchiliklari.
29. Vektorli grafika avfzalligi va kamchiliklari.
30. Fraktal grafika avfzalligi.
31. Multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish vositalari. Video muharrirlarining umumiy ko'rinishi.
32. Windows Movie Maker dasturida video bilan ishlash asoslari.
33. Windows Movie Maker dasturida kino fragmentini yaratish.
34. Windows Movie Maker Kliplar tayyorlash. Filmni qo'lda tahrirlash.
35. Windows Movie Maker dasturi. Video effektlardan foydalanish
36. Windows Movie Maker. Video o'tishlarni qo'shish. Sarlavhalar va sarlavhalar kiritish. Fon tovushini qo'shish. Avtomatik o'rnatish. Filmni saqlash.
37. Ovoz bilan ishlash dasturlari.
38. Photoshop dasturida animatsiyalarni yaratish.
39. Photoshop dasturida ob'yektlarni yaratish va ishlov berish.
40. 3D model va ularni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar.
41. 3D max dasturi va uning avfzalligi va kamchiligi.
42. Blender dasturi va uning imkoniyatlari.
43. SMM(Social Media Marketing) tushunchasi.
44. SMM(Social Media Marketing) platformalari.
45. CMS (content management systems) tushunchasi.
46. CMS (content management systems) ning nechta asosiy turi mavjud?
47. Videoyozuv tushunchasiga ta'rif bering.
48. Audiotizim tushunchasiga ta'rif bering.
49. Animasiya tushunchasiga ta'rif bering.
50. Multimedia texnologiyasining muhim xususiyatlari.